



## SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI: NAZARIY VA QONUNCHILIK TAHLILI

---

*Nazarov Shamshod O`ktam o`g`li*  
*Toshkent davlat traansport universiteti,*  
*Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs Yu-5 guruh talabasi*  
*E-mail: nazarovshamshod0999@gmail.com*  
*Telefon raqami: +998995930999*

**Anatatsiya:** Mazkur maqolada shaxsiy hayot daxlsizligining metodologik tahlili, bu borada olimlarning fikrlari o`rganilgan, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi qonunchiligida mavjud bo`lgan shaxsga doir ma`lumotlar tizimi, shaxsiy hayot daxlsizligining o`ziga xos xususiyatlari va ushbu sohadagi muammo va kamchiliklar, olib borilishi lozim bo`lgan tizimli va izchil ishlar, istiqboldagi vazifalarning mazmun mohiyati yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** shaxsiy hayot, shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsga doir ma`lumotlar, shaxsga doir ma`lumotlar mexanizmi, shaxsiy hayot daxlsizligini buzish, xalqaro huquq.

**1.Dolzarbliqi.** Texnologiyaning tez sur`atlar bilan o`sishi natijasida ma`lum bir huquqiy masala va muammolarni keltirib chiqardi. Ulardan biri shaxsiy hayot daxlsizligi hisoblanadi. Hozirgi internet hamda axborot almashinuvi o`sayotgan davrda har bir inson ma`lum bir ijtimoiy tarmoqdan kundalik hayotida foydalanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar insonlar uchun ma`lumot almashish uchun qulay bo`lishiga qaramay, foydalanuvchilarning shaxsga doir ma`lumotlari saqlanadigan ulkan bazaga aylanib qolmoqda. Bunday vaziyatda shaxs ma`lumotlari orqali unga tahdid qilinishi yoki undan o`z maqsadi yo`lida foydalanilishi mumkin. Ushbu holatlarda shaxsiy hayot daxlsizligi muhim hisoblanadi

**2.Metodlar.** Ushbu maqola qiyosiy-huquqiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, tarixiy metodlari asosida yoritilgan bo`lib, unda

**3.Tadqiqot natijalari:** Shaxsiy hayot deganda jismoniy shaxsning o`zi tomonidan olib boriladigan, tashqi ta`sirdan xoli bo`lgan uning jismoniy va ruhiy hayoti tushuniladi. Ya`ni, shaxsiy hayot bu oilaviy, maishiy muhit (*oila a`zolari, lavozimi, millati, kimning qayerda ishlashi, qayerda nima ovqat yeyishi va hokazo*), muloqot muhiti (*do`stlari, tanishlari, ishqiy munosabatlari*), diniy munosabati, ish (o`qish)dan xoli mashg`uloti, shaxsiy qiziqishlari (munosabatlari) va boshqa shu



kabi chegaralangan muhitlar bo‘lib, shaxs bular haqida ma'lumotlar oshkor etilishini istamasligi mumkin (*bu huquq boshqalarning huquqlarini buzganda qonunda belgilangan tartibda chegaralanishi mumkin*)<sup>1</sup>.

O‘zbek olimlari konstitutsiyaviy huquq jihatidan shaxsiy hayot daxlsizligi huquqiga mavhum yondashishga harakat qilib, “shaxsiy hayot” tushunchasining o‘zgaruvchanligini hisobga olishgan. N.S.Saburov quyidagicha ta’rif bergan: “Shaxsiy hayot daxlsizligi – shaxsning tug‘ilishi bilan vujudga keladigan va hech kimning aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydigan insonning hayotiy turmush tarzidir”<sup>2</sup>. A. Saidov yuqoridagi fikrlardan farqli ravishda, shaxsiy hayot daxlsizligining mohiyatini yoritishga harakat qilgan: “Shaxsiy hayot daxlsizligi shaxsning individual hayotiga tashqaridan aralashmaslikni nazarda tutib, bunga fizik (hayot, inson sog‘lig‘i) daxlsizlik va psixik daxlsizlik (axloqiy, diniy – shaxs sha’ni va vijdoni)”<sup>3</sup>.

Yuqoridagi olimlarning barchasi shaxsiy hayot tushunchasini elementlarga ajratishda institutsional yondashib, tushunchaga o‘z subyektiv fikrlaridan kelib chiqib ta’rif berishga harakat qilishgan. Lekin “shaxsiy hayot” o‘zgaruvchan holat ekanligini, shaxs bilan bog‘liq istalgan holatni “shaxsiy hayot”ga taalluqli yoki taalluqli emasligini belgilash faqat shaxs ixtiyorida ekanligini unutmazlik lozim<sup>4</sup>. Insonning “shaxsiy hayot”iga bo‘lgan munosabati uning ong darajasi hamda psixikasi xususiyatlari bilan bog‘liq deb hisoblaymiz.

Alan Uestin, Devid Fleherti, Mark Rotenberg, Richard Posner, Lourens Lessig, Daniel J. Solove hamda boshqa G‘arb olimlari shaxsiy hayot daxlsizligi bo‘yicha o‘z nazariyalarini e‘lon qilishgan. Ulardan Alan Uesting ta‘limoti ayniqsa diqqatga sazovordir. 1968-yilda nashr etgan “Privacy and Freedom” kitobida Alan Uestin shaxsiy hayot daxlsizligining 4 elementlarini nazariy izohlashga harakat qilgan:

- 1) personal autonomy – insonning shaxsiy avtonomiyasi;
- 2) emotional release – emotsional ozod bo‘lish, ya’ni muayyan odamlar bilan munosabatlarda psixologik to‘siqlarning buzilishi;
- 3) self – evaluation – anonimlik, ya’ni jamoat joylarida o‘zi haqidagi ma’lumotlarni oshkor qilish darajasini mustaqil belgilashi;

<sup>1</sup> <https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/564>

<sup>2</sup> A.A.Azizxo‘jayev va boshq. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. – T.: TDYI.2008.140-bet

<sup>3</sup> A.X.Saidov va boshq. Inson huquqlari umumiy nazariyasi. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.42-bet/

<sup>4</sup> <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/download/14642/10196>



4) limited and protected communication – yopiq munosabat, ya’ni tor doiradagi odamlar bilan bo’ladigan munosabatni ixtiyoriy ta’minlash<sup>5</sup>.

Quyidagilar professor Daniel J. Solove keltirib o’tgan G’arb “Privacy”si tizimini tashkil etib, “shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi” elementlari hisoblanadi:

1) yolg’iz qolish huquqi;

2) o’ta shaxsiy ma’lumotlarga boshqalarning ega bo’lish imkoniyatini cheklash imkoniyati;

3) mahfiylik yoki boshqalardan istalgan ma’lumotlarni yashirish imkoniyati,

4) o’zi haqidagi ma’lumotlardan boshqalar foydalanishini nazorat qilish imkoniyati;

5) mahfiy bo’lish holati, individuallik va avtonomiya;

6) o’ziga moslik va shaxsiy o’sish, yaqin aloqalardan himoyalani<sup>6</sup>.

Y. Zamoshkin ta’kidlaganidek, *shaxsiy hayot sohasi chegaralari sharti jismoniy ifoda kasb etib, turar – joy devorlari bilan belgilangan, lekin hozirgi davrda bu informatsion tus olmoqda. Boshqacha so’z bilan aytganda, ijtimoiy voqelik sifatida shaxsiy hayot emas, balki shaxsiy hayot to’g’risidagi ma’lumotlarga qiziqish namoyon bo’lmoqda*<sup>7</sup>. Hozirgi davrda shaxslar to’g’risidagi ma’lumotga egalik qilish orqali ularni boshqarish, manipulyatsiya qilish, ularni majburlash oson, shu sababli insonni bunday noqonuniy harakatlardan himoya qilishda shaxsiy hayot to’g’risidagi ma’lumotlarni muhofaza qilish zarurati yuzaga keladi. Normativ-huquqiy hujjatlarda insonning shaxsiy hayot daxlsizligi huquqiga, ya’ni shaxsiy hayoti haqida ma’lumotlarning daxlsizligi alohida e’tibor berilgan. Chunki huquqiy harakatlar amalga oshirilganda inson shaxsiy hayoti to’g’risidagi ma’lumotlarga ega bo’lish yoki ularga noqonuniy munosabatda bo’lish orqali inson shaxsiy hayotiga aralashish, to’g’rirog’i inson shaxsiy hayoti daxlsizligi huquqini buzishi mumkin.

Bugungi zamonaviy qarashlar o’tmishdagidek emas. Insonning shaxsiy hayoti muqaddas tushunchaga aylanmoqda. Inson tug’ilganidan boshlab u haqidagi ma’lumotlar uning hayoti davomida biror-bir joyda “iz” qoldiradi. Shifoxonada, FHDYo bo‘limlarida, bog‘chada, maktabda, banklarda va boshqa tashkilotlarda, kundalik foydalanadigan ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda yoki ma’lumotlar bazalarida shaxsning foto, video, audio, yozma yoki elektron shaklidagi shaxsga doir ma’lumotlar mavjud<sup>8</sup>.

<sup>5</sup> Alan F. Westin. Privacy and Freedom. – New York: Athenaeum, 1968. – С. 8.

<sup>6</sup> Solove 2008, pp. 12–13.

<sup>7</sup> Замошкин, Ю.А. Частная жизнь, частный интерес, частная собственность. / Ю.А. Замошкин // Вопросы философии. 1991. № 1. - С. 4.

<sup>8</sup> <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/konstitusiyaga-kiritilayotgan-uzgarish>



Shu sababli ham tergov organiga fuqaroning shaxsiy hayotiga aralashib uning telefon so‘zlashuvini eshitish bo‘yicha o‘zi mustaqil qaror qabul qilish vakolatini boshqaga berib bo‘lmaydi. Albatta tiyib turuvchi mexanizmlar kerak. Endilikda bu tartibga solinib, tintuv va telefon eshitish doirasi ham sud tomonidan belgilanishi, bunga qay darajada zaruriyat borligi xolis va mustaqil sudya tomonidan baholanishi belgilanmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda shaxsiy hayot daxlsizligi Konstitusiyada mustahkalandi. Har bir fuqaro, har bir oila o‘zining shaxsiy hayoti va oilaviy sirini himoya qilish, o‘z mulkiga ega bo‘lishi va uning daxlsizligiga o‘zga shaxslarning tajovuzidan xavotirsiz hayot kechirishi lozim.

Telekommunikasiya tarmoqlari va axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan axborot va ma’lumotlarni uzatish, tarqatish jarayonlari osonlashdi va xalq ichida ommaviylashdi.

Endilikda fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlari, yozishmalari va biometrik ma’lumotlarini saqlash va tarqatilishida tashqi ta’sirlardan himoya zarurati yuzaga keldi. Mazkur daxlsizlik huquqlari konstitusiyaga kiritilmoqda va shaxsiy, oilaviy sir va ma’lumotlar noqonuniy to‘planishi va tarqalib ketishi cheklanmoqda. Bundan tashqari Konstitusiyada uy-joyga bo‘lgan huquq daxlsiz etib belgilandi.

O‘zbekiston Prezidenti 2021 yil 14 yanvar kuni «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi qonunga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qonunni imzoladi. Shu asosda amaldagi qonun «O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlashning alohida shartlari» nomli 27-1-modda bilan to‘ldirildi. Bunga qadar – 2002 yil 12 dekabrda qabul qilingan “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 13-moddasida shaxsning axborot borasidagi xavfsizligiga oid normalar belgilangan. Xususan: “Shaxsning axborot borasidagi xavfsizligi uning axborotdan erkin foydalanishi zarur sharoitlari va kafolatlarini yaratish, shaxsiy hayotiga taalluqli sirlarini saqlash, axborot vositasida qonunga xilof ravishda ruhiy ta’sir ko‘rsatilishidan himoya qilish yo‘li bilan ta’minlanadi. Jismoniy shaxslarga taalluqli shaxsiy ma’lumotlar maxfiy axborot toifasiga kiradi. Jismoniy shaxsning roziligisiz uning shaxsiy hayotiga taalluqli axborotni, xuddi shuningdek shaxsiy hayotiga taalluqli sirini, yozishmalar, telefondagi so‘zlashuvlar, pochta, telegraf va boshqa muloqot sirlarini buzuvchi axborotni to‘plashga, saqlashga, qayta ishlashga, tarqatishga va undan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno. Jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi axborotdan ularga moddiy zarar va ma’naviy ziyon yetkazish, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga



chiqarilishiga to'sqinlik qilish maqsadida foydalanish taqiqlanadi. Fuqarolar to'g'risida axborot oluvchi, bunday axborotga egalik qiluvchi hamda undan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar bu axborotdan foydalanish tartibini buzganlik uchun qonunda nazarda tutilgan tarzda javobgar bo'ladilar. Ommaviy axborot vositalari axborot manbaini yoki taxallusini qo'ygan muallifni ularning roziligisiz oshkor etishga haqli emas. Axborot manbai yoki muallif nomi faqat sud qarori bilan oshkor etilishi mumkin"<sup>9</sup>.

Bugungi globallashuv jarayonlarida shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni uning roziligisiz qonunga xilof ravishda yig'ish yoki tarqatish holatlari bot-bot kuzatilmoqda. Ayrim ommaviy axborot vositalari yoki ba'zi bir blogerlar shaxsning obro'si, sha'ni va qadr-qimmatini tushiradigan axborot tarqatganligi uchun sud oldida javobgar bo'layotgani ham statistik ma'lumotlarda ko'rinib qolmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish miunkinki mazkur munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda "shaxsiy hayot", "shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi", shuningdek "davlat (jamoat) manfaatlari" kabi muhim tushunchalarning ifodalanmaganligi qonunchilikdagi o'ziga xos bo'shliq hisoblanadi va bu holat shaxsiy hayotga turli asossiz aralashuvlarni ro'y berishiga imkon beradi. Bu esa o'z navbatida fuqarolarning qonuniy manfaatlarini to'liq ta'minlashga to'sqinlik qiladi va ayrim o'rinlarda suiiste'molliklar va huquqbuzarliklarni keltirib chiqaradi. Shu bois shaxsiy hayot daxlsizligiga oida milliy qonunchilikni huquqni qo'llash amaliyotidagi muammolar hamda xalqaro-huquqiy standartlardan kelib chiqib takomillashtirish dolzarb masaladir.

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga oid ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunida shaxsiy hayotning bir qismi hisoblangan shaxsning o'zi va hayotiga hamda boshqa shaxsiy nomulkiy huquq va manfaatlariga oid ma'lumotlarni muhofaza qilish masalalari belgilangan. Shu sababli fuqaroning shaxsiy hayotini muhofaza qilishga oid asosiy qoidalar, bu boradagi muayyan mezon va muhofaza qilish chegaralari, shaxsiy hayotni muhoaza qilishda belgilanayotgan huquqlar va kafolatlar Fuqarolik kodeksida ifodalanishi maqsadga muvofiqdir.

---

<sup>9</sup> ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ ШАХСИЙ ХАЙОТ ДАХЛСИЗЛИГИНИ ТА'МИНЛАШ СОHASIDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNCHILIGI TAHLILI Abdullayev Akmaljon Yo'Ichiboyevich O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi "Tergov faoliyati" kafedrasida katta o'qituvchisi

**Reference:**

- 1) <https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/564>
- 2) А.А.Азизхо'jayев ва бoшq. О'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. – Т.: TDYI.2008.140-bet
- 3) А.Х.Сaidov ва бoшq. Inson huquqlari umumiy nazariyasi. – Т.: О'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.42-bet/
- 4) <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/download/14642/10196>
- 5) Alan F. Westin. Privacy and Freedom. – New York: Atheneum, 1968. – С. 8.
- 6) Замошкин, Ю.А. Частная жизнь, частный интерес, частная собственность. / Ю.А. Замошкин // Вопросы философии. 1991. № 1. - С. 4.
- 7) <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/konstitusiyaga-kiritilayotgan-uzgarish>
- 8) ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI TA'MINLASH SOHASIDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNCHILIGI TAHLILI Abdullayev Akmaljon Yo'lchiboyevich O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi "Tergov faoliyati" kafedrasida katta o'qituvchisi